

**MUSIQIY TA'LIM TIZIMIDA YOSH IJROCHILARNI TAYYORLASH
JARAYONIDA IJROCHILIK AMALIYOTINING O'RNI.**

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası
12-1 vokal-21-guruh talabasi **To'xsonov Abdullatif Zavqiddin o'g'li**

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqiy ta'lim tizimida yosh ijrochilarni tayyorlash jarayonida ijrochilik amaliyotining o'rni muhim ekanligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim tizimi, ijrochilik an'analari, mumtoz musiqi, qo'shiq, an'anaviy xonandalik.

O'zbek xonandalik san'ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida o'rin tutib kelgan. Uning hozirgi davrga kelib mavqeyi

buyuklashgani, behisob merosga ega bo'lganligining asosiy sababi, bu – uning bevosita xalq ijodiyoti bilan bog'langanligidir. O'zbek xalqining ma'naviyati buyuk,

uning tili va adabiyoti, san'ati, musiqiy merosi bunga yorqin misoldir. Shu bois o'zbek mumtoz musiqi an'anasini, ijrochiligi dunyo miqyosida o'zining buyukligi bilan ajralib turadi. Zero, bu borada yurtboshimizning quyidagi so'zlarini eslab o'tish joizdir: «Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqi madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqi san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda». Ayni vaqtda mumtoz musiqaning yoshlar tomonidan munosib o'zlashtirilishi ta'lim jarayonidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki, uzluksiz ta'lim mezonida barkamol avlodni tarbiyalashda xalqimiz azaliy qadriyatlariga asoslanib, shu bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida yoshlarga singdirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy musiqani o'zlashtirish mezonini azal-azaldan ustoz-shogird an'anasida amalga oshirib kelingan. Bu jarayonning ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Chunki, mukammal va murakkab asarlarni o'zlashtirishda bar qator bosqichlarni bosib o'tish zarur. Bu bosqichlarning har biri bilan muayyan vazifani o'zlashtirishga bag'ishlangan bo'lishi lozim. Musiqiy ta'lim tizimi barkamol avlodning tarbiyasidagi asosiy bosqichda amalga oshirilib, shakllanish bosqichiga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonda yosh ijrochilarni, ustozlarni kasbiy tayyorlash o'ziga xos an'anaviy mezonlar bilan bog'liq bir qator amallarni o'z ichiga oladi. Musiqi ijrochilik san'ati azal-azaldan o'zining sirli dunyosi bilan tinglovchilarni lol qoldirib kelgan. Dunyo so'z tufayli yaralgan bo'lsa, inson jismiga jon musiqi yordamida kirgan. Hadislarda «So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat» deb bejiz aytilmagan. Til xalqning borligiga asos bo'lsa, madaniyat uning buyukligidan dalolatdir. Qo'shiq esa madaniyatning bir zarrasi, hayotda uning hamisha o'z o'rni va o'z vazifasi mavjud. Qo'shiq ermak uchun to'qilmaydi, havasga aytilmaydi, aksincha, qo'shiq kishilarni yashashga, kurashga chorlaydi, mehnatga, muhabbatga ruhlantiradi, dard-u-qayg'usiga malham, baxtu-quvonchiga sherik bo'ladi... Qo'shiq xalq orzu-armonlarining ifodasi, ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundandir. O'tmishda qo'shiq matnlarini donishmandlar, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan ijodkorlar, mashhur shoirlar yozishgan. Insoniyat ma'naviyatini aks ettiradigan go'zal, ma'noli va ta'sirchan so'zlarni tanlab-tanlab

yoziqshgan. Xalq orasidan chiqqan mohir bastakorlar ularga kuy bastalagan. Xushovoz xonandayu, hofizlar ularni maromiga yetkazib ijro etishgan. Qo‘shiq ana shunday muqaddas, ilohiy bir mo‘jiza. Qo‘shiqning ta‘riflari ham o‘tmish olimu-fozillari hamda shoirlari tomonidan madh etilgan. Xususan, so‘z san‘atining sultoni hazrat Alisher Navoiy o‘zlarining «Mahbub ul qulub» asarida qo‘shiq kuylovchilarining ta‘rifini keltirib quyidagilarni yozadi: «Ko‘ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdand oziqa oladi. Yoqimli ovozu mahorat bilan kuylaydigan xonandadan dard ahlining o‘ti yana alanganadi. Agar go‘zal bo‘lsa, hissiyot ahlining o‘rtasida qiyomat ko‘tariladi»² ...Bu qo‘shiq va xonandalarga berilgan eng munosib ta‘rif, desak adashmagan bo‘lamiz. O‘zbek xonandalik san‘ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida o‘rin tutadi. Amaliyot jarayonida o‘zbek xonandaligi turli janrlar va shakllar bilan boyib kelgan. Xonandalik san‘ati xalq va mumtoz yo‘nalishlarda rivojlanganligini e‘tirof etish lozimdir. Xalq yo‘llari qo‘shiqchilik, laparchilik, yallachilik va termachilikka xos bo‘lsa, mumtoz yo‘liga maqom va maqom yo‘llariga xos ashulalar, dostonlar, katta ashula-yu suvoralar munosib joy olgan. Bu janrlarning har biri o‘z shakli, ijro imkoniyati va sharoitidan kelib chiqib ijrochilik an‘analari yuzaga kelgan. Ularni o‘ziga xos tarzda, shakliga mos talqin etish chiroyli ovoz, tabiiy iste‘dod, malakali saboqni talab etgan. O‘tmishdan ustoz san‘atkorlar kekxa hofizlarning an‘analarini o‘zlashtirib, ustoz sabog‘i ila kuylab kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Holmurodovna R. U. I., Oqila S. Makom art is a priority in the musical culture of Uzbekistan //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 2 (47). – С. 87-88.
2. Kholmurodovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
3. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
4. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An‘anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o‘rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
5. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.
6. Рамазонова Ў. Х. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, ГУРУҲ БИЛАН ИШЛАШ ВА УНИ БОШҚАРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.
7. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
8. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1. – С. 88-91.
9. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
10. Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
11. Kholmurodovna R. O., Abdulatif T. Note Reading Exercises in Primary Classes in Music Schools //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 231-233.

12. Kholmurodovna, R. O., & Ilkhovich, T. R. (2024). A Look at Some of the Problems of Teaching Solfege in Children's Music and Art Schools. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(5), 228-230.

13. Jamilovna E. M. Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash //INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 160-164.

14. Kholmurodovna, Ramazonova Ogiloy, and Torayev Ruslan Ilkhovich. "A Look at Some of the Problems of Teaching Solfege in Children's Music and Art Schools." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.5 (2024): 228-230.

15. Jamilovna E. M. Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash //INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 160-164.

16. Kholmurodovna R. O., Abdulatif T. Note Reading Exercises in Primary Classes in Music Schools //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – T. 4. – №. 5. – C. 231-233.

17. Kholmurodovna, Ramazonova Ogiloy, and Torayev Ruslan Ilkhovich. "A Look at Some of the Problems of Teaching Solfege in Children's Music and Art Schools." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.5 (2024): 228-230.

18. Saidaxmedov S. et al. XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – C. 324-326.

19. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.

20. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 336-339.

21. Рамазонова У. Х. Эсанова Махлиё Жамиловна Подготовка Молодых Певцов К Ансамблевому Выступлению. – 2021.

22. Рамазонова Ў. Х. Талабаларда маънавий-ахлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 586-590.

23. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 496-501.

24. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 17-22.

25. Olimov S. S., Mamurova D. I. Opportunities to use information technology to increase the effectiveness of education //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). – 2022. – T. 14. – №. 02.

26. Mamurova D., Khusnidinova N. Didactic possibilities of using computer graphics programs in the educational process //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 84. – C. 02020.